



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI AGENTLIGI**

AGENCY OF PLANT PROTECTION AND QUARANTINE
MINISTRY OF AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100015, Toshkent shahar, “Bobur” 1-berk ko‘chasi, 17-uy, Tel: +99871 202-10-00,
web: www.karantin.uz, e-pochta: info@karantin.uz, karantin.exat.uz

2023-yil 18-aprel

3-25/72-son

**Bojxona brokerlari
uyushmasi raisi
A. O. Ayrapetyansga**

Hurmatli Arsen Olegovich,

Ma’lumki, karantin ostidagi mahsulotlarning import-eksport jarayonlari O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha xalqaro konvensiyasi (*Rim, 1951-yil 6-dekabr*), O‘zbekiston Respublikasi “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi Qonuni, Bojxona Kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori hamda boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali amalga oshirib kelinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65 - son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan nizom talablariga muvofiq karantin ruxsatnomasi chetdan olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotlarga (yuklar)ga karantin ko‘rigi dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so‘ng bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishga asos hisoblanishi hamda transport vositasi va karantin ostidagi mahsulotlar belgilangan joyga keltirilishi bilan quyidagi karantin tadbirlar o‘tkazilishi shartligi belgilangan, xususan karantin inspektori tomonidan ko‘rikdan o‘tkazish, laboratoriya tekshiruvi uchun namunalari olish, laboratoriya tahlillari natijasiga ko‘ra yukni chiqarib yuborish, o‘simliklar karantini obektlari aniqlanganda, yukni zararsizlantirish, qaytarish yoki yo‘q qilish choralari ko‘rilishi belgilangan.

2022- yil 13-iyungacha bo‘lgan amaliyotda yuqorida ko‘rsatilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq karantin ostidagi mahsulotlarni import-eksport bo‘yicha operatsiyalari Bojxona qo‘mitasining 2016-yil 29-fevraldagi 01-02/15-07-sonli (*ro‘yxat raqami 2773, 2016 yil 6 aprel*) qarori bilan tasdiqlangan “Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi”ning 12-ilovasining 18-pozitsiyasida karantin ko‘rigi dalolatnomasi kiritilganligi uchun bojxona organlari karantin ostidagi mahsulotlarni import bojxona rasmiylashtiriluvini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga 2-ilovasi bilan tasdiqlangan nizomning 3-ilovasi 2-bandiga asosan karantin ko‘rigi dalolatnomasini bojxona yuk deklaratsiyasiga (BYUD) kiritishni talab qilingan (*ushbu amaliyot bajarilganda respublikaga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotlar bilan o‘simliklar karantini obyektlari respublika hududiga kirib kelishi to‘liq oldi olingan*).

Biroq, Bojxona qo'mitasining 2022-yil 13-iyundagi "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 12/02-22-0016-son (*Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 13-iyul kuni 2773-8 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan*) qarori bilan O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan kelishuvsiz Yo'riqnoma (*keyingi o'rinlarda - Yo'riqnoma*)ning 12-ilovasi 18-pozitsiyasidan karantin ko'rigi dalolatnomasi chiqarib tashlangan.

Bojxona rasmiylashtiruv jarayoniga taaluqli, ya'ni bojxona yuk deklaratsiyasiga rasmiylashtirishga oid asosiy hujjatlardan biri hisoblangan karantin ko'rigi dalolatnomasini chiqarib tashlanganligi oqibatida bojxona brokerlari va deklarantlari tomonidan xorijiy davlatlardan olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotlarni bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirishda karantin ko'rigi dalolatnomasi talab etilmayotganligini vaj qilgan holda xorijiy davlatlardan olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotlarni fitosanitariya nazoratidan o'tkazmasdan IM-40 rejimga olinib erkin muomalaga chiqarib yuborishda tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordam ko'rsatmoqdalar. Bu bilan ayrim bojxona brokerlari va deklarantlar o'z navbatida bojxona rasmiylashtiriluvda karantin ostidagi mahsulotlarni fitosanitariya nazorati to'liq amalga oshirilmasligi va qonun buzilishlariga shart-sharoit va keng imkoniyatlar yaratib berib kelinmoqda, jumladan:

2023-yil 15-aprel holatiga ko'ra respublikaga import bo'lib kelgan **2 214 ta** transport birligi va birgina Rossiya Federatsiyasidan **674 ta vagon** orqali kirib kelgan **fitosanitar xavfi yuqori bo'lgan 201 619 dona va 1 675 TN ekish va urug' mahsulotlari 97 910 m³ yog'och mahsulotlari va 6 354 TN sitrus mevalari** fitosanitariya nazorati yakunlamasdan **ayrim bojxona brokerlari va deklarantlar** taqdim qilgan hujjatlar asosida hududiy bojxona organlari xodimlari tomonidan ushbu mahsulotlar erkin muomalaga chiqarib yuborilishi respublikaning fitosanitariya xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Ma'lumot uchun: 2023-yil davomida davlatlararo chegara o'tkazish punktidan kirib kelgan karantin ostidagi mahsulotlar davlat inspektorlari tomonidan fitosanitariya nazoratidan o'tkazilib, belgilangan tartibda mahsulotdan 2 640 ta olingan namunalarning 411 ta namunasida karantin obyektlari aniqlanib, tegishli o'simliklar karantin tadbirlari amalga oshirilgan.

E'tiborlisi shundaki, kirib kelayotgan fitosanitar xavfga ega mahsulotlarning fitosanitariya nazorati yakunlanmasdan erkin muomalaga chiqarish amaliyoti davom ettirilishi quyidagi salbiy **oqibatlar**ni keltirib chiqarishi mumkin, xususan:

respublika hududiga karantin va boshqa o'rganilmagan **yangi** turdagi zararli organizmlar kirib kelishi va tarqalishi;

zararli organizm tarqalishi oqibatida qishloq xo'jaligi ekinlari hosillarini saqlab qolish uchun ko'plab pestitsid qo'llanilishi (mahsulotlarda zaharli qoldiqlar to'planishi);

o'simliklar karantini nazorati tizimi respublikaning O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro Konvensiyasi doirasidagi **majburiyatlar bajarilmasligi**;

xalqaro arenada respublikaning fitosanitar xavfsizlikni ta'minlash tizimiga **ishonchsizlikka** olib kelishiga, mavjud eksport bozorlari yopilishi va yangi bozorlar ochilishiga cheklovlar qo'yilishi.

Ma'lumot uchun: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga 1-ilovasi bilan O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib

chiqiladigan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro‘yxatida fitosanitar xavfi yuqori bo‘lgan karantin ostidagi mahsulotlar nomi va TIF TN bo‘yicha kodi tasdiqlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududlarida faoliyat yurituvchi bojxona brokerlari va deklarantlar tomonidan xorijiy mamlakatlardan olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotlarni import bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori talablariga qat’iy rioya etgan holda karantin ko‘rigi dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so‘ng karantin ostidagi mahsulotlarni tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirilishi bo‘yicha tegishli ko‘rsatma berishingizni hamda ushbu amaliyotni doimiy nazoratga olinishida amaliy yordam berilishini so‘raymiz.

Agentlik nomidan o‘z minnatdorchiligini bildirib,

Bosh direktor o‘rinbosari v.b.

N.Kasimov

